O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING

Q A R O R I

Namangan sh. Istiqlol ko`chasi 57.

2024 - yil 4 - mart 113-6-0-Q/24 Namangan viloyati hokimligi

Namangan viloyatining shahar va tumanlarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berishning minimal qiymatini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, yerga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 8-iyundagi PF–6243-son Farmoni ijrosini ta’minlash yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida” 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga muvofiq, har bir tuman (shahar) uchun tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirishda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berishning minimal qiymatini belgilash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati soliq boshqarmasi (A.Boyxanov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov)ning 2024-yil uchun tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan yer uchastkalarini “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijara huquqi (1 kvadrat metr uchun) yuzasidan ishlab chiqilgan minimal qiymati bo‘yicha tavsiyasi ma’qullansin.

2. Namangan viloyatining shahar va tumanlarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan bir kvadrat metr yer uchastkasini “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berishning minimal qiymati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov) har bir tuman (shahar) uchun yer

uchastkasini ijaraga berishning minimal qiymati u tasdiqlangan sanadan e’tiboran bir ish kunida soliq xizmatlari organlari tomonidan “YERELEKTRON” AATga kiritilishini ta’minlasin.

4. Viloyat qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (D.Mirxanov), shahar va tuman hokimliklari belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarga tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini ijaraga berish maqsadida auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlasin.

5. Viloyat soliq boshqarmasi (A.Boyxanov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (B.Pazilov) hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) bo‘sh turgan yer uchastkalarining minimal qiymat bahosiga qat’iy rioya qilinishi hamda mahalliy budjetga pul tushumlarini o‘z vaqtida to‘liq tushurilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduhamidov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Djamalov zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi **Sh.Abdurazakov**

Namangan viloyat hokimining
2024-yil 4-martdagi
113-6-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Namangan viloyatining shahar va tumanlarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan bo‘sh turgan bir kvadrat metr yer uchastkasini “E-auksion” elektron savdo platformasi orqali ijaraga berishning minimal qiymati

T/r	Shahar, tumanlar nomi	1 kvadrat metr yer uchastkasi uchun bir yillik soliq miqdori (so‘m)	Minimal qiymat miqdori (so‘mda) *(hududda mavjud hamda kelgusida markazlashgan manbalar hisobidan barpo etilishi rejalashtirilgan muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish nuqtalari bo'yicha)*			
			I-toifa	II-toifa	III-toifa	IV-toifa
1.	Namangan shahar	6 072	60720			
2.	Davlatobod tumani	6 072	60720			
3.	Yangi Namangan tumani	6 072	60720			
4.	Kosonsoy tumani	2 970			14850	
5.	Mingbuloq tumani	2 882				8646
6.	Namangan tumani	3 410			17050	
7.	Norin tumani	2 970				8910
8.	Pop tumani	2 970			14850	
9.	To‘raqo‘rg‘on tumani	3 542		24794		
10.	Uychi tumani	3 322		23254		
11.	Uchqo‘rg‘on tumani	3 278		22946		
12.	Chortoq tumani	3 322			16610	
13.	Chust tumani	3 432			17160	
14.	Yangiqo‘rg‘on tumani	3 058			15290	